

## XARAJATLAR HISOBI VA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH

Tursunova (Pirnazarova) Gulnora Urumbayevna

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedra assistenti MTU "TIQXMI"

[gulnora@uzpalmer.com](mailto:gulnora@uzpalmer.com)

<https://orcid.org/0009-0005-5874-973X>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18051570>

Ichki auditni tashkil etishdan maqsad boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ko'maklashish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, korxonani rivojlantirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish hamda ularning bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit bo'limini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi mezonlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- birinchidan, bu kuzatuv kengashi yoki ijro organiga tashkilotning avtonom bo'linmalari ustidan samarali nazoratni amalga oshirish imkonini beradi;

- ikkinchidan, ichki auditorlar tomonidan o'tkaziladigan maqsadli nazorat tekshiruvlari va tahlil ishlari ishlab chiqarish rezervlari va rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlarini belgilab beradi;

- uchinchidan, ichki auditorlar nazorat bilan birga yuqori tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy, buxgalteriya va boshqa xizmatlari, uning filiallari va sho'ba korxonalari mansabdor shaxslariga nisbatan maslahat berish vazifasini ham bajaradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit bo'limini tashkil etishning asosiy bosqichlari:

- ichki audit bo'limining tashkil etish orqali hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni aniqlash va to'g'ri belgilab olish, korxonada hisob siyosatiga muvofiq bo'lim tashkil etishning maqsadlari tizimini yaratish;

- qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni aniqlashtirish;

- bir turdagi vazifalarni guruhlarga birlashtirish va ular asosida ushbu vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan bo'limning tarkibiy birligini shakllantirish;

- har bir tarkibiy birlikning o'zaro munosabatlar sxemasini, huquq, majburiyat va mas'uliyatini belgilash, ularning lavozim yo'riqnomasi va ichki audit bo'limi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- tarkibiy birliklarni yagona ichki audit bo'limiga birlashtirish, uning tashkiliy holati (mavqei)ni belgilash, va tarkibiy birliklar maqsadlari, vazifalari va funksiyalarining tegishli to'plamiga muvofiq "Ichki audit xizmati to'g'risida" nizom ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ichki audit bo'limini korxonaning boshqaruv bo'linmalari bilan integratsiya qilish;

- ichki auditning ishchi standartlari va Axloq kodeksini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasida ichki audit xizmatini tashkil etishning asosiy normativ-hujjatlaridan biri "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ichki auditni tashkil etish borasida quyidagilar belgilangan:

- aksiyadorlik jamiyatining har yilgi biznes-rejasi kelgusi moliyaviy yilning 1 dekabridan kechiktirmay, kuzatuv kengashi majlisida ma'qullanishi lozim;

- aksiyadorlik jamiyatlarining kuzatuv kengashi qarorida belgilangan korporativ boshqaruv normalariga rioya etish bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida har yili hisobot beradi;

- aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ko'p bo'lgan korxonalar va aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'proq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida esa ichki audit xizmatlari tashkil etiladi, mazkur xizmatlar kuzatuv kengashlari tomonidan tayinlanadi va ularga hisobot beradi [14].

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat va aksiyadorlik jamiyatlari sonini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda, ichki audit xizmati tashkil etish lozim bo'lgan barcha korxonalarining umumiy soni miqdorini aniqlash mumkin.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizomning I-bandiga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ham ichki audit xizmatini joriy etish majburiyligi belgilandi.

Shunga muvofiq, bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari bilan birga ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda ham ularning ta'sischilar umumiy yig'ilishiga hisobdorligi belgilangan ichki audit xizmati bo'limi tashkil etilmoqda.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan (2.10-jadval).

210-jadval ma'lumotlarining tahlilini keltirib o'tsak, 2017 yil 1 yanvar holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 121 506 ta, 2008 yilda esa 35 902 ta bo'lib, demak shu davr ichida 85 604 taga ko'paygan. Lekin, aksiyadorlik jamiyatlarining kamayish tendensiyasi 2013-2014 yillarga to'g'ri keladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondi oshirilishi tufayli kamaygan. Yilma-yil tahlil qilganimizda aksiyadorlik jamiyatlari soni 2017 yilda 622 ta, 2008 yilda 1 725 ta bo'lgan, ya'ni 1 103 taga kamaygan. Natijada ichki auditorlarning o'z vaqtida ish jarayonini amalga oshirishida sertifikatlangan ichki auditorlarning ish bilan ta'minlanishi kamayadi. Shu sababli, aktivlarining qiymati 1 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ham ichki audit xizmatini tashkil etishni nazoratga olish maqsadga muvofiq.

Lekin, aksariyat ma'suliyati cheklangan jamiyatlar aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lsa-da, hanuzgacha ichki audit xizmati tashkil etilmagan. Shu sababli, ushbu korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etishni qonunchilik bilan tartibga solish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarning tasdig'i sifatida ichki audit xizmati xodimlarini xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda, korxonalar faoliyatidan kelib chiqib, o'sha sohaning tegishli iqtisodchi xodimlarini o'qitib, ichki auditor sifatida ishlashga taklif qilinsa, birinchi navbatda, ichki auditor o'sha sohani to'liq biladigan bo'ladi, ikkinchidan, ichki auditorning iqtisodiy ahvoli bilan bog'liq muammo o'z yechimini topadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Law of the Republic of Uzbekistan. On banks and banking activities // National database of legislative acts, 06.11.2019, No. 03/19/580/3994; 07.01.2020, No. 03/20/600/0023.

2. Law of the Republic of Uzbekistan. On the Central Bank of the Republic of Uzbekistan // National database of legislative acts, 12.11.2019, No. 03/19/582/4014.
3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “Strategy for Reforming the Banking System of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025” No. PF-5992, National Database of Legislative Documents, 13.05.2020, No. 06/20/5992/0581, approved on May 12, 2020.
4. Strategy of the President of the Republic of Uzbekistan “Digital Uzbekistan - 2030” dated October 5, 2020, No. PF-6079, National Database of Legislative Documents, 06.10.2020, No. 06/20/6079/1349.
5. Resolution of the Board of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. On approval of the Regulation on the classification of asset quality in commercial banks and the procedure for the formation and use of reserves to cover potential losses on assets // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2015, No. 28, Article 374; National Database of Legislative Documents, 30.04.2018, No. 10/18/2696-2/1120.
6. Annual Report of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan for 2023.//www.cbu.uz.
7. [7.Ways to improve the accounting for liabilities in the travel agency](#). TM Zhuraevna European journal of economics and management sciences, 3-6.
8. 8.АА Каримов, СУ Мехмонов, МЖ Темирханова [Развитие социально-экономических систем в условиях нового технологического уклада](#). Стратегия устойчивого развития в антикризисном управлении экономическими ...
9. М.Ж Темирханова, ХБ Зарипов [СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ](#) Бюллетень науки и практики 6 (7), 262-271
10. М.Ж Темирханова, [Хусан Баходирович Зарипов, Ли Шаоминь. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире](#) Бюллетень науки и практики Vyulleten nauki i praktiki 6 (7), 262-271